


IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI

2022- yilning yanvar-mart oylarida 3 076,7 mlrd so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sh sur‘ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 153,6 foizni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 168,6 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 5,5 % va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 66,6 % o‘zlashtirildi.


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2 908,1 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 94,5 % va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 166,6 % o‘zlashtirildi.




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar
(2022- yil yanvar-mart)

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati foiz, %	hajmga nisbatan % da
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	3 076,7	153,6	100,0
Markazlashgan investitsiyalar:	168,6	66,6	5,5
Byudjet mablag'idan	72,7	46,5	2,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	28,0	42,5	0,9
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	67,9	7,2 m.	2,2
Markazlashmagan investitsiyalar:	2 908,1	166,0	94,5
Korxonalar o'z mablag'lari	694,9	101,1	22,6
aholi mablag'lari	272,9	138,1	8,9
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	1 688,9	2,9 m.	54,9
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	251,4	87,6	8,1


Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da
(2022- yil yanvar-mart)



Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da
(2022- yil yanvar-mart)



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
(jami hajmdagi ulushi, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko'rsatkichi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar mablag'i hisobiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 267,7 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Shahar va tumanlar	Jami		shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %
➤ Viloyat bo'yicha:	3 076,7	153,6	1 716,9	267,7
<i>shaharlar:</i>				
➤ Andijon	479,2	115,0	153,0	105,0
➤ Xonobod	187,4	6,4 m.	172,2	41,6 m.
<i>tumanlar:</i>				
➤ Oltinko'l	199,7	113,2	-	-
➤ Andijon	118,5	89,3	11,8	23,7
➤ Baliqchi	43,6	56,3	5,5	-
➤ Bo'ston	40,1	110,1	24,1	2,3 m.
➤ Buloqboshi	309,0	5,6 m.	272,0	43,5 m.
➤ Jalaquduq	96,4	76,5	5,5	73,7
➤ Izboskan	84,1	2,1 m.	54,8	7,9 m.
➤ Ulug'nor	66,0	106,4	57,0	9,7 m.
➤ Qo'rg'ontepa	233,1	182,7	146,5	7,8 m.
➤ Asaka	705,8	2,4 m.	532,7	2,1 m.
➤ Marhamat	124,7	126,4	82,8	3,3 m.
➤ Shahrixon	179,5	192,8	109,5	7,5 m.
➤ Paxtaobod	29,6	49,3	1,6	10,8
➤ Xo'jaobod	180,0	104,3	87,9	168,5

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'rish sur'atlari, % da




Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha	
		davlat	nodavlat
Jami, mlrd. so'm	3 076,7	228,3	2 848,4
<i>shu jumladan:</i>			
umumiy hajmga nisbatan, % da	100,0	100,0	100,0
<i>mashina, uskunarlar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari</i>	50,0	26,6	51,9
qurilish-montaj ishlari	42,7	67,6	40,7
boshqa xarajatlar	7,3	5,8	7,4

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, mlrd. so'm



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % da




■ Yangi qurilish

■ Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qurollantirish

■ Boshqalar


Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Andijon viloyati bo'yicha mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari ulushi – 50,0 %, qurilish-montaj ishlari – 42,7 % hamda boshqa harajatlar - 7,3 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga
o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 210,3 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 6,8 %), tog'-kon sanoatida 6,3 mlrd. so'm (0,2 %), qayta ishlash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 938,2 mlrd. so'm (63,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 67,1 mlrd. so'm (2,2 %), qurilish sohasida 196,5 mlrd. so'm (6,4 %), ulgurji va chakana savdo sohasida 72,8 mlrd. so'm (2,4 %), tashish va saqlash 128,0 mlrd. so'm (4,2 %) hamda boshqa faoliyat turlari bo'yicha 457,5 mlrd. so'm (14,8 %) ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan % da)




2022- yil yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 165,6 ming kv.m. (2021- yilning mos davriga nisbatan 134,0 %) bo'lgan 912 ta xonadonga ega bo'lgan turar-joylar, ulardan 93,8 ming kv.m. (129,2 %) bo'lgan 532 ta xonadonlar qishloq joylarda ishga tushirildi.




Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari (2022- yil yanvar-mart oylari)

2022- yilning yanvar-mart oylarida Andijon viloyatida jami 1 139,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 106,7 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi (2022- yil yanvar-mart oylari)





Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.


2022- yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 21,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 59,6 % ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Andijon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 68,6 foizi yoki 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 98,2 %) ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-mart
- 2022- yil yanvar-mart

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 79,3 foizi to'g'ri kelib, 2021- yil yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan 104,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan ulushi 0,1 % ga kamaygan, hajmi esa 154,2 mlrd. so'mga ko'payganligi qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,9 % ni tashkil etdi yoki 215,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 126,6 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning hajmi, ulushi va o'sish sur'atlari

ulushi % da, hajmi mlrd. so'm

O'sish sur'ati 126,6 %


Hajmi 215,0 mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 48,8 mlrd. so'm yoki 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 156,2 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1 091,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 148,0 % tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



 Davlat mulki

 Nodavlat mulk



Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari
(2022- yil yanvar-mart oylari)

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk*	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
Viloyat bo'yicha:	1 139,8	48,8	4,3	1 091,0	95,7
Andijon sh.	407,2	19,8	4,9	387,4	95,1
Xonobod sh.	35,0	0,0	0,0	35,0	100,0
tumanlar:					
Oltinko'l	46,9	0,5	1,1	46,4	98,9
Andijon	146,7	4,4	3,0	142,3	97,0
Baliqchi	20,7	1,8	8,7	18,9	91,3
Bo'ston	51,0	1,1	2,2	49,9	97,8
Buloqboshi	18,7	1,0	5,4	17,7	94,6
Jalaquduq	41,4	3,2	7,7	38,2	92,3
Izboskan	38,5	1,8	4,7	36,7	95,3
Ulug'nor	21,3	1,2	5,6	20,1	94,4
Qo'rg'ontepa	35,2	1,4	4,0	33,8	96,0
Asaka	37,2	1,1	3,0	36,1	97,0
Marhamat	57,9	2,7	4,7	55,2	95,3
Shahrixon	103,8	1,9	1,8	101,9	98,2
Paxtaobod	40,5	1,0	2,5	39,5	97,5
Xo'jaobod	37,8	5,9	15,6	31,9	84,4

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2021- yil, yanvar-mart

13,7



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

12,6



Fuqarolik
obyektlarining qurilishi

73,7



Bino va inshootlarning
qurilishi

2022- yil, yanvar-mart

13,3



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

11,4



Fuqarolik
obyektlarining qurilishi

75,3



Bino va inshootlarning
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha jami qurilish ishlari hajmining ulushi 75,3 % tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,1 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga ko'paydi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulushi 2021- yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan 2,9 % punktga kamayib, 72,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yil yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan 1,5 % punktga ko'payib, 25,1 % tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha jami qurilish ishlari hajmining ulushi 11,4 % ni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 1,3 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 10,9 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 98,7 % (10,9 % punktga ko'paydi).






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmining ulushi 13,3 % ni tashkil etdib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 0,4 % ga kamaydi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,5 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,5 % ga kamaydi.

Qolgan 99,5 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 2,5 % punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmida tashkilotlar ulushi, % da





Hududlar kesimida qurilish ishlari (2022- yil yanvar-mart oylarida)

Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)



Kichik hajm (mlrd. so'm)

